

Uzbekistan Airways Express Toshkentdan Krasnoyarskka parvozlarni yo'lga qo'ymoqda

2022 10 June

2022-yil 25-iyundan Uzbekistan Airways Express Toshkent – Krasnoyarsk – Toshkent xalqaro yo'nalishi bo'yicha ilk qatnovini amalga oshiradi. Muntazam aviaqatnovlar haftada bir marta – shanba kunlari amalga oshiriladi.

Toshkentdan uchish: 17:30 (Toshkent vaqti bilan)

Krasnoyarskka yetib borish: 23:00 (Krasnoyarsk vaqti bilan)

Krasnoyarskdan uchish: yakshanba kuni 00:30 (Krasnoyarsk vaqti bilan)

Toshkentga yetib borish: yakshanba kuni 02:15 (Toshkent vaqti bilan)

Toshkent – Krasnoyarsk yo'nalishi bo'yicha aviachipta narxi 1 996 039 so'mdan (bagajsiz) va 2 232 382 so'mdan (bagaj bilan), Toshkent – Krasnoyarsk – Toshkent yo'nalishi bo'yicha esa 3 695 230 so'mdan (bagajsiz) va 4 144 282 so'mdan (bagaj bilan) boshlanadi.

Narxlar 10.06.2022 holatiga ko'ra amal qiladi.

Aviachiptalarni www.uzairways.com rasmiy saytidan 3% chegirma bilan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.